

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



ORIENTAL UNIVERSITETI
Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

70230104 – Adabiyotshunoslik: arab adabiyoti
Magistratura



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

70230104 – Adabiyotshunoslik: arab adabiyoti

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

ORIENTAL UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: MUTALOVA GULNORA SATTOROVNA

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Falsafa doktori (PhD)



A'zo: MOSTAFA ORABI AZAB MAHMOUD

Cairo University (Misr)

Falsafa doktori (PhD)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260078
Xulosa raqami	1230
Xulosa sanasi	07.07.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"ORIENTAL UNIVERSITETI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Noroztepa ko'chasi, 52-uy. Litsenziya: № 1359849, 25.05.2021. Guvohnoma: MAS № 0000382, 23.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Adabiyotshunoslik: arab adabiyoti
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	70230104
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 1359849, 25.05.2021
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	70230104 – Adabiyotshunoslik: arab adabiyoti
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	70230104 – Literary Studies: Arabic Literature
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	70230104 – Литературоведение: арабская литература
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek, rus, ingliz
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	7-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	—
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat tomonidan tan olinadigan diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	100 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Noroztepa ko'chasi, 52-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 3 yillik istiqbolli rejaning (bundan buyon matnda istiqbolli reja deb yuritiladi) mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim talabi va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, modullarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
2.4.	<i>ta'lim mazmunining zamonaviy andragogik yondashuvlarga mosligi, modullar muammoli keyslar asosida shakllantirilgani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani va malaka oshirishning muqobil shakllarining yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining to'g'ri tashkil etilgani, uning doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.4.	<i>tinglovchilarning kirish va chiqish testlari, baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;</i>	Muvofiq
4.	Tinglovchilar faoliyati	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>malaka oshirish reja-grafigi ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi hamda ta'lim dasturlarini samarali amalga oshirish uchun yetarililigi;</i>	Muvofiq
4.3.	<i>tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi modullarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.4.	<i>amaliyotchi hamda xorijiy mutaxassislarni jalb qilish imkoniyatlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.5.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.6.	<i>xorijda malaka oshirgan professor-o'qituvchilarning o'quv jarayoniga jalb qilingani;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;</i>	Muvofiq
6.2.	<i>modullar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning tinglovchilar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) (bundan buyon matnda ARM deb yuritiladi) ta'lim dasturlariga mos o'quv</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
	<i>adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;</i>	
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

Mazkur bobda 70230104 – “Adabiyotshunoslik: arab adabiyoti” magistratura ta'lim dasturini boshqarish hamda ichki sifatni ta'minlash tizimining holati baholandi. O'rganilgan hujjatlar ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilma sifatida “Tillar-1” kafedra tashkil etilgani, kafedra nizomida uning vakolatlari, funksiyalari va mas'uliyat doiralari aniq belgilanganini tasdiqladi. Shuningdek, ta'lim dasturini zarur resurslar bilan ta'minlashga qaratilgan moddiy ta'minot rejasi ishlab chiqilgani hamda ichki sifatni ta'minlash va monitoring qilish mexanizmlari amaliyotga joriy etilgani ta'lim dasturining barqaror rivojlanishiga xizmat qilayotgani e'tirof etildi. Magistratura bosqichining ilmiy xususiyatidan kelib chiqib, ta'lim dasturini boshqarish bo'yicha mas'uliyatning kafedra darajasida aniq biriktirilishi, ilmiy va tashkiliy jarayonlarni muvofiqlashtirish hamda ijro intizomini ta'minlashning muhim boshqaruv omillaridan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan baholash natijalari ta'lim dasturini boshqarish va sifatni ta'minlash tizimining akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga muvofiq tashkil etilgani tasdiqlandi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Ushbu bobda ta'lim dasturining mazmuni, tuzilishi hamda amaldagi me'yoriy talablarga muvofiqligi baholandi. Taqdim etilgan hujjatlar ta'lim dasturining mazmuni, maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va o'quv rejasining tarkibi tizimli ravishda shakllantirilganini hamda ularni ishlab chiqish va takomillashtirish tartiblari belgilanganini tasdiqladi. O'quv rejasidagi fanlar ketma-ketligi arab adabiyoti tarixi, adabiyot nazariyasi va ilmiy tadqiqot metodologiyasi yo'nalishlarining o'zaro uzviy bog'liqligi asosida shakllantirilgani magistrantlarning nazariy bilimlari va ilmiy-tahliliy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qilishi e'tirof etildi. Magistratura bosqichining ilmiy yo'nalishga ega ekanligini inobatga olib, ilmiy-

tadqiqot faoliyatining ta'lim dasturiga integratsiya qilinishi, mustaqil ilmiy izlanishlar olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda zamonaviy ilmiy metodlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilishi magistr kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan baholash natijalari ta'lim dasturi mazmunining akkreditatsiya mezonlari va sifat talablariga muvofiq shakllantirilgani e'tirof etildi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

Magistratura ta'lim dasturi bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish hamda ta'lim natijalarini baholash tizimining holati baholandi. O'rganilgan hujjatlar o'quv rejalari, fan dasturlari va sillabuslar tizimli ravishda shakllantirilganini, ularni ishlab chiqish va takomillashtirish jarayonlarida soha mutaxassislari, professor-o'qituvchilar hamda magistrantlarning ishtiroki ta'minlanganini tasdiqladi. Ta'lim natijalarini baholash mezonlari belgilangan tartib asosida ishlab chiqilgani, baholash jarayonlarining shaffofligi ta'minlangani hamda akademik halollik tamoyillarini qo'llashga qaratilgan mexanizmlar amaliyotga joriy etilgani kuzatildi. Magistratura bosqichining ilmiy yo'nalishini inobatga olib, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashning barcha bosqichlari, jumladan mavzuni tanlash, ilmiy rahbar bilan ishlash, tadqiqotni amalga oshirish va yakuniy himoyani tashkil etish tartiblarining aniq reglamentlashtirilgani ilmiy ishlar sifatini ta'minlash hamda magistrantlarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan baholash natijalari o'quv jarayoni va baholash tizimining akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga muvofiq tashkil etilgani tasdiqlandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Magistrantlarni qabul qilish, talabalar harakatini boshqarish hamda ularni akademik va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimining holati baholandi. Taqdim etilgan hujjatlar magistraturaga qabul jarayoni, talabalar harakati va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari Vazirlar Mahkamasining 578-son qarori, PF-81-son Farmoni hamda universitetning ichki me'yoriy hujjatlari asosida tashkil etilganini tasdiqladi. Qabul mezonlari, kirish sinovlarida qo'llaniladigan fanlar majmuasi, baholash tartiblari hamda apellyatsiya mexanizmlarining oldindan belgilanishi va ochiq e'lon qilinishi qabul jarayonining shaffofligini ta'minlashga xizmat qilayotgani kuzatildi. Shuningdek, magistrantlarning akademik faoliyatini muvofiqlashtirish, ularni zarur axborot va maslahatlar bilan ta'minlash hamda ta'lim jarayonida qo'llab-quvvatlash

tizimi belgilangan tartiblar asosida yo'lga qo'yilgani e'tirof etildi. Mazkur yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan baholash natijalari talabalar faoliyatini tashkil etish tizimining akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga javob berishi tasdiqlandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun shakllantirilgan inson resurslari salohiyati, professor-o'qituvchilar tarkibi hamda ularning kasbiy rivojlanish tizimining holati baholandi. O'rganilgan hujjatlar "Tillar-1" kafedrasida 51 nafar professor-o'qituvchi faoliyat yuritayotganini, ularning aksariyati ilmiy darajaga ega ekanini hamda mutaxassisligi o'quv rejasidagi fanlar mazmuniga mosligini tasdiqladi. Shuningdek, professor-o'qituvchilarning malakasini muntazam oshirish, PhD tayyorlash, ilmiy-pedagogik faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tizimlari izchil yo'lga qo'yilgani, bu esa ta'lim sifati va ilmiy salohiyatni rivojlantirishga xizmat qilayotgani kuzatildi. Arabshunoslik yo'nalishi bo'yicha ilmiy darajali mutaxassislar salohiyatining mavjudligi magistrantlarda ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish, ilmiy rahbarlik sifatini oshirish hamda ta'lim dasturining ilmiy darajasini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Mazkur yo'nalish bo'yicha mavjud inson resurslari salohiyati ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun belgilangan talablarga muvofiqligi e'tirof etildi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Taqdim etilgan hujjatlar va mavjud infratuzilma asosida moddiy-texnik ta'minot hamda axborot-resurs bazasining holati baholandi. O'rganish natijalari ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur kompyuter sinflari, laboratoriya xonalari, smart doskalar bilan jihozlangan auditoriyalar, Axborot-resurs markazi hamda zamonaviy raqamli ta'lim muhiti shakllantirilganini tasdiqladi. Shuningdek, arab tilidagi ilmiy va o'quv adabiyotlari, elektron axborot bazalari hamda raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlari yaratilgani magistrantlarning o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qilayotgani kuzatildi. Sharq tillari va arab adabiyoti yo'nalishining ilmiy xususiyatidan kelib chiqib, arab tilidagi manbalar fondini, elektron kutubxonalar va ilmiy ma'lumotlar bazalarini muntazam boyitib borish magistrantlarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ilmiy izlanishlar sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlari moddiy-texnik va axborot-resurs ta'minoti

akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga muvofiq tashkil etilganini tasdiqladi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Arab tilidagi manbalar va zamonaviy ilmiy adabiyotlar fondini kengaytirish zarur.
- ✓ Xalqaro ilmiy hamkorlik va almashinuv imkoniyatlari to'liq ishga solinmagan.
- ✓ Magistrantlarning xalqaro nashrlardagi ishtirokini faollashtirish talab etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Arab tilidagi manbalar, zamonaviy ilmiy adabiyotlar va elektron bazalar fondini muntazam boyitib borish.
- ✓ Xalqaro arabshunoslik markazlari bilan ilmiy hamkorlik va almashinuv dasturlarini kengaytirish.
- ✓ Magistrantlarning xalqaro konferensiya va nashrlardagi ishtirokini rag'batlantirish.
- ✓ Magistrlik tadqiqotlari natijalarini amaliyotga joriy etish mexanizmlarini rivojlantirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Oriental universitetida 70230104 – “Adabiyotshunoslik: arab adabiyoti” magistratura ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, inson resurslari hamda moddiy-texnik baza kompleks ravishda baholandi. O'rganish davomida ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash tizimi amaldagi me'yoriy talablar asosida shakllantirilgani, mas'ul tarkibiy tuzilma faoliyati, ichki monitoring mexanizmlari va resurslarni rejalashtirish tizimi samarali yo'lga qo'yilgani, dastur davlat ta'lim standarti, Milliy malakalar ramkasi hamda mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq ishlab chiqilgani tasdiqlandi. Shuningdek, o'quv jarayoni natijalarga yo'naltirilgan yondashuv, shaffof baholash tizimi va akademik halollik tamoyillari asosida tashkil etilgani, magistrantlarni qabul qilish, ularning ilmiy va akademik faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari izchil faoliyat yuritayotgani, professor-o'qituvchilar

tarkibining ta'lim dasturi talablariga mosligi hamda arab tilidagi ilmiy manbalar, elektron axborot bazalari va zamonaviy infratuzilma resurslari bilan ta'minlangan o'quv muhiti yaratilgani o'z ifodasini topdi. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturi bo'yicha ko'rib chiqilgan barcha 6 bob va 27 ta mezon belgilangan akkreditatsiya talablari hamda sifat mezonlariga to'liq muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturini amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan hamda uni yanada takomillashtirish orqali bartaraf etilishi mumkin bo'lgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, mavjud dalillar va baholash natijalari 70230104 – “Adabiyotshunoslik: arab adabiyoti” magistratura ta'lim dasturining akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablar va sifat standartlariga to'liq javob berishini tasdiqladi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	20.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	5-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

